

**BAXTIYAR GENJEMURATOV IJODIDA LIRIK  
QAHRAMON OBRAZI**

Aysuluw Keñesova

**Kalit so'zlar.** Janr, lirik qahramon, shahsiy uslub, obraz, lirika, góya.

**Annotatsiya.** Bu maqolada qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri B.Genjemuratov ijodi va uning lirik asarlaridagi qahramon obrazining anglatilish masalasini tahlil qildik. Lirik qahramon tushunchasining ózi haqida ham malumotlar keltirib ótildi. Shoир ijodidagi lirik qahramon obrazi orqali asardan kutilayotgan mazmun-mohiyatning ochib berilishi haqida malumotlar berildi.

**Ключевые слова.** Жанр, лирический герой, личный стиль, образ, лирика, идея.

Lirkqahramon tushunchasi adabiyotshunoslik ilmida ancha vaqtlardan buyon muhokamali fikrlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ham, lirkqahramon tushunchasi býicha kópchilik olimlar óz kózqarashlarini, fikrlarini keltirib ótgan edi. Va bu borada óz fikriga e'ga V.G.Belinsky óz asarlarida «dirik qahramon» termini bilan emas, «shoирning meni» yoki «subiekt» deb nomlagan.

Lirik qahramon termini esa eng dastlab rus olimi Yu.N.Tinyanovning 1921-yil A.Blokning ijodi haqidagi yozgan asarida ishlatiladi. Sóng adabiyotshunos olim V.Nazarenko ózining “Lirik qahramon tushunchasi haqida” nomli maqolasida «dirik qahramon sherni yozgan shoирga emas, óylab topilgan boshqa bir subiekt (inson)ga tegishli bólishini» aytib, adabiyotshunoslik ilmida bu terminning qóllanilishiga butunlay qarshi chiqadi. D.Maksimov, L.Timofeev, M.Baxtin singari olimlar esa uning fikriga qarshi chiqqan holda bu terminning adabiyotshunoslik ilmida alohida ahamiyatga ega ekanligini óz ilmiy ishlarida dalillab beradi.

Shuningdek, adabiyotshunos olimlardan biri L.Ginzburg: “Lirika – adabiyotning umumiyligiga intiluvchi óziga hos turi. Lirikada odamning tasvirlanishi umumlashgan bóladi. Lirik poeziya hamma vaqt ham avtorning ózi haqida, óz tuyǵulari haqida, ózining tógridan-togri sózlari bóna bermaydi, bu – lirik subiektning tashqi muhit bilan boglıqligi, ularga kózqarashi va bahosi”- deb yozadi. [3]

Lirik qaharmon obrazi haqida dunyo va rus adabiyotshunoslida sóz etilgan bu kabi fikrlar juda ham kóp. Shu jumladan, bu termin haqida ózbek adabiyotshunoslaridan I.Sulton: “Lirik qahramon – lirik asarning ichki tuyǵu kechinmalarini bildirgani bilan, shoирning umumiy jamiyat uchun qimmatli bólgan óy-fikrlari va tuyǵularini tushunadigan shaxs bólib hisoblanadi” deb yozadi.[6]

Shu bilan birga, qoraqalpoq adabiyotida ham lirik qahramon obrazi haqida shu kungacha turli hil ilmiy ishlarda uning mazmun mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Masalan, Q.Kamalov óz maqolasida: “Bizda bazan lirik qahramonning óylash dizapazoni tor, hayot haqiqatlari haqida tushunchalari eskirgan bólib keladi” degan edi. Demak, lirik qahramonning



óylash va fikrlash doirasining tor yoki kengligi birinchi navbatda, shoirning manaviy dunyosiga boǵlıq.

Lirik qahramonlar haqida gab ketganda albatta, «bu lirik qahramon mi yoki avtorning ózi mi?» degan savol paydo bólishi mumkin. Lirikada kópincha shoirning ózining ichki kechinmaları beriladi shu sababli ham kópincha shoirni lirik qahramon sifatida qabul qilinadi. Lekin lirikada berilgan tuyǵularni shoirning hayotidan olingan dep tushinishxato. Shoir ózidan boshqalarning ham ruxiy holatiga kira olish istedodiga ega va lirik meni orqali kóp odamlarning ichki tuyǵularini, dartlarini bera oladi.

Qoraqalpoq adaboyotida óz órniga ega bólgan shoir B.Genjemuratovning quyidagi sherida lirik qahramon shoirning ózi, avtorning ózining umr haqidagi fikrlari keltirilgan, lekin, sherni óqish jarayonida umumlashgan lirik qahramonning obrazi kóz oldimizda namoyon bóladi. Masalan:

Qayta kelmes bul ótken kúnler...

Sağınishiń menen muńlarıń,  
sher siresken ármanlı túnler,  
jıljıy berer óamli jillarıń.

Májnún talday óamgún ómiriń,  
jasıl japıraq jaysa da áwel,  
bul waqıttıń izey kebiri,  
ǵarrılıqtıń duzların seber.

Shuningdek, quyidagi qatorlarda sherning tóliq kontekstida ayol haqida sóz bólmoqda. Shoir shunday mohironalik bilan ayollarga hos his-tuyǵularni, ularning ichki-kechinmalarini sherga shunchalik singdira olgan. Sherni óqish jarayonida ósha ayolning haddi-harakatlari, holati kóz oldimizdan ótadi.

Uypa-juypa – túndey dawilli,  
hám tarqalǵan – bulltay tozǵıǵan.  
“Meniń baxtım nege jawınlı –  
Eleberin bul da az maǵan!...” –

**Research Science and  
Innovation House**

dep sińsisań qarap aynaǵa.  
Tarqatılǵan shashıń órimes.  
“Shúkir... – deyseń, -daq bar ayda da,  
Muńlı nashar jalǵız men emes...”

Poeziyada lirik qahramon obrazini yaratishning badiiy usullari kóp. Ularning biri lirik qahramonning ijtimoiy-siyosiy xizmatini angaltish orqali badiiy obrazning yangi qirralarini ochib beradi.

Adabiyotshunos olim B.Norboev ham óz ilmiy ishida harqanday asarda mazmun avvalo shoir qalbida paydo bólíb, keyin u ijodkorning lirik qahramonlarining kóngliga ótadi, eng asosiy góya shu lirik qahramonning obrazi orqali gavdalanadi va lirik qahramonning tipikligi paydo bóladi”[4]-degan fikrlarini keltirgan. Albatta, harqanday góya dastlab ijodkorning óy-hayollarida gavdalanadi. Shoir B.Genjemuratovning ham óy-hayollar dengizi shunchalik teran va ajoyib-ki, sherlarini óqib zavq olasiz kishi.

Shákirtim soraw berdi: - Aqılım lal, ustaz...

Ne degen maǵanadur – filologiya ?..

Men oǵan juwap berdim oylanip azmaz:

- Ol –  
ádebiylogiya  
plyus (+)  
tilologiya...

Ómirimniń mazmuni – Ulyalogiya!

Men ushın simvolizm, romantizm.

Quwanishbayda fakt kóp – Gúwalogiya.

“Logiya”lardan kóp terledim ózim...

Avtorning bu qóshiq qatorlarida uning ajoyib dunyoqarashi va sherni óquvchining kóngliga yetib borishida óziga hoslikga ega ekanligidan darak beradi.

Yakunlab aytganda, lirikada insonlarning manaviy dunyosi, ósha davrning dolzarb muammolari, ijtomiy-siyosiy hodisalar, insonning turli hil tuyǵulari, insoniy fazilatlari óz aksini topadi. Shoir B.Genjemuratov ijodida esa dunyoni anglashga va uni turli hil usullar yordamida tushuntirishga bólgan intilishlar kuzatiladi. Uning sherlarining mazmun-mohiyatini ochib berishda lirik qahramonlar obrazining ahamiyati alohida.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Ахметов С., Есенов Ж., Жәримбетов К, Әдебияттаныў атамаларының орысша қарақалпақша түсиндирме сөзлиги. Нөкис, Билим, 1994.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, «Ўзбекистон», 2002.
3. Дабылов П. Қарақалпақ поэзиясында лирикалық қаҳарман образының жасалыў өзгешелікleri. Нөкис,2018.
4. Норбоев Б. Хаётни поэтик талқинэтиштамойилларивамахратмуаммолари... (60-80-йиллар ўзбеклирикаснимисолида). Фил.фан.докт.дисс... автореф. – Тошкент., 1996.
5. Оразымбетов К. Ҳәзирги дәўирдеги қарақалпақ лирикасында көркемлик излениўшилик. Нөкис «Билим», 1992.
6. Султан И. Адабиётназарияси. Тошкент, Ўқитувчи, 1980.